



Dusmurodova Ruhshona Hasanova

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Iqtisod (axborot texnologiyalari) yo‘nalishi talabasi

Ochilova Dilnoza Ismoil qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur ishda ishsizlik muammosining mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham ko‘rib chiqilib, uning darajasi mamlakat iqtisodiy barqarorligi bilan bevosita bog‘liqligi yoritiladi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, bandlik siyosati va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari tahlil etiladi. Shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali ishsizlikni kamaytirish yo‘llari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ishsizlik, bandlik, mehnat bozori, iqtisodiy o‘sish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasb-hunar ta’limi, yoshlar bandligi, ijtimoiy himoya, mehnat migratsiyasi.*

Annotation: *This paper analyzes the essence of the unemployment problem, its causes, and its impact on social development. Unemployment is considered not only as an economic issue but also as a socio-psychological problem, and its level is explained as being directly related to the economic stability of a country. In particular, the reforms implemented in Uzbekistan to reduce unemployment, employment policies, and measures to support entrepreneurship are examined. Furthermore, ways to reduce unemployment through the creation of new jobs, development of vocational education, and promotion of small business and private entrepreneurship are substantiated.*

Keywords: *unemployment, employment, labor market, economic growth, small business, private entrepreneurship, vocational education, youth employment, social protection, labor migration.*

Аннотация: *В данной работе анализируется сущность проблемы безработицы, причины её возникновения и влияние на развитие общества. Безработица рассматривается не только как экономическая, но и как социально-психологическая проблема, а её уровень напрямую связывается с экономической стабильностью страны. В частности, рассматриваются реформы, проводимые в Узбекистане по снижению уровня безработицы, политика занятости и меры по поддержке предпринимательства. Также обосновываются пути сокращения безработицы посредством создания новых рабочих мест, развития профессионального образования, а также стимулирования малого бизнеса и частного предпринимательства.*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ключевые слова: безработица, занятость, рынок труда, экономический рост, малый бизнес, частное предпринимательство, профессиональное образование, занятость молодежи, социальная защита, трудовая миграция.

Ishlab chiqarishning mehnat kabi resursidan to'liq va oqilona foydalanish va shu munosabat bilan ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, ishsizlikni kamaytirish borasida qizg'in faoliyat olib borish davlatning nihoyat darajada muhim vazifalaridir. Ushbu muammoni hal etishda ikki asosiy bosh yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchisini sub'ektiv yo'nalish deb nomlash mumkin. U insonni mehnat faoliyatiga shunday tayyorlashni tashkil etishdan iborat bo'ladiki, bunda inson ishlab chiqarish shart-sharoitlari, texnik baza o'zgarishlari munosabati bilan muvaffaqiyatli ravishda mehnat faoliyat olib borish uchun yetarli darajada tez qayta tayyorgarlikdan o'tib, yangi bilim, qobiliyat va ko'nikmalar orttira oladi. Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida insonning ishga joylashuvi uning shaxsiy ishiga aylanib qoldi. Endi davlat unga shunday masalalarni o'zi hal etishida yordam beradi, xolos. Buning ustiga, ishga joylashuv ishsizlik mavjudligi sharoitida ro'y beradi, bu esa ishsizlik muammosini hal qilishni anchagina qiyinlashtiradi. Bularning barchasi O'zbekiston fuqarolari uchun yangidir. Ushbu sharoitda ular yaxshi tayyorlangan bo'lishlari, mehnat bozorida o'zlarini qanday tutishni, o'zlarining qanday huquqlari, yangi sharoitlarda qanday vazifalari borligini, ishsiz qolgan kishi o'zini qanday tutishi lozimligini, ishga qay yo'sinda yollanish, qay tarzda ish izlash kerakligi va hokazolarni bilishlari zarur bo'lib qolmoqda. Aholiga shu tarzda ta'lim berish ish bilan bandlikka ko'maklashish markazining bosh vazifasi bo'lib qolishi kerak. Bu hozirgi paytda milliy iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlarning taxminan 2/3 qismi xodimlar sifatida qayta qurish davridan oldingi paytlarda shakllanganligi bilan ahamiyatlidir. Davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi faoliyati aholining ish bilan bandligini ta'minlash sohasidagi muhim yo'nalishdir. Davlat iste'mol va investitsiya tusidagi tovar va xizmatlarga bo'ladigan talabni rag'batlantirib, shu asosda mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalarda yangi ish o'rinlari yaratib borishi, iqtisodiyotning xususiy tarmog'ini va ushbu tarmog'da yangi ish o'rinlari ochilishini rag'batlantirishi lozim. Lekin davlat faoliyatining shu jihatini takomillashtirish talab etiladi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida, umuman, aholini ijtimoiy himoyalashning muhim sharti sifatida ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoyalash siyosati dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning boy tajribasiga asoslangandir. Ammo, bu tajribalarning ko'pchiligi O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy siyosatining tub mohiyatiga tatbiqan yetarlicha to'g'ri kelavermaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, hukumat ishsizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlagandan keyingina, boshqa ishlarga kiritishi – dastlab ish bilan bandlikni barqarorlashtirish (saqlash)ga, so'ngra uning o'sishini rag'batlantirishga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kirishishi mumkin. Bunda ish bilan bandlikning o'zini rag'batlantirish uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

- tadbirkorlar bilan ishlash, masalan, yangi ish joylari yaratilganda soliq imtiyozlarini ishsizlarning ish izlashlarini faollashtirish;
- ishchi kuchi taklifini rag'batlantirish; berish,
- yollanma ishchilar sinfini mehnat bozoridan chiqarish, xususiy tadbirkorlik bilan o'z-o'zini ish bilan band qilishni rag'batlantirish (kasanachilik, uy sharoitida ochilgan mayda sexlar va boshqa).

Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806 son qaroriga asosan o'zini o'zi band qilish to'g'risida nizom ishlab chiqildi. Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bo'lsa, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarida o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat bozorida vaziyatni xolis baholash, mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga muvofiq aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda Mehnat vazirligining ish bilan ta'minlash masalalarini o'rganish natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri - ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni, ish bilan band bo'lmagan aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talab ortib bormoqda. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash, ularga munosib hayot va mehnat sharoitlari yaratib berishga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotning turli jabhalarida mehnat qilayotganlar soni ortib bormoqda, mavjud mehnat salohiyatidan samarali foydalanish ko'rsatkichi tobora yaxshilanmoqda. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda ishsizlik darajasi 8,1 foizgacha pasaygan. 2023-yil boshiga kelib O'zbekistonda 15 millionga yaqin mehnatga layoqatli aholidan 13,7 million kishi ish bilan ta'minlangan. 2023 yilning birinchi yarmida ishsizlik darajasi 8,1 foizga kamaydi. 2024-yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va yangi moliyaviy vositalarni joriy etish hisobiga bu ko'rsatkich yanada 7,5-8 foizga kamayishi kutilmoqda. Bu ma'lumotlar mamlakat Markaziy banki tomonidan tayyorlangan Mehnat bozori tadqiqotida keltirilgan. Mehnat bozori sharhi tashqi mehnat migratsiyasi masalasini ham qamrab oladi. 2018-2023-yillarda mehnat muhojirlari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari mamlakat aholisi umumiy daromadlarining qariyb 16 foizini tashkil etdi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari bir qancha yaqin mamlakatlarda, xususan, Rossiya va Qozog‘istonda sodir bo‘ladi. “Rosstatning so‘nggi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi choragi ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolariga Rossiyada berilgan patentlar va yakuniga ishlash uchun ruxsatnomalar soni 12 foizga kamaygan va 1,2 million donani tashkil qilgan. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmida O‘zbekiston fuqarolarining migratsiya ro‘yxatiga olinganlari soni ham 2,9 milliondan 1,7 millionga yoki 43 foizga kamaygan”, — deyiladi Markaziy bank xabarida. 2023-yilda boshqa davlatlardan pul o‘tkazmalari hajmi 14 foizga oshdi. O‘zbekiston mehnat migrantlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratilishi, turli davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar sonining ko‘payishi, shuningdek, xorijda ishchi kuchiga barqaror talab tufayli migratsiya oqimlarining joriy dinamikasi davom etishini kutmoqda. Dastlabki prognozlariga ko‘ra, 2024-yilda xorijdan O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi taxminan 12-12,5 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. Bugungi kunda respublikada ishsizlikning paydo bo‘lish sabablariga ko‘ra, quyidagi asosiy turlari ko‘p uchramoqda:

- tarkibiy, iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo‘lishi yoki eskisiga barham berilishi va mulkchilik shakllarining o‘zgarishi bilan yuzaga keladi;
- yashirin, bu asosan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xarakterlidir va bu haqiqiy ishchi kuchini kamroq miqdorda talab qiladi. Yashirin ishsizlik ishlab chiqarishning chuqur inqirozi sharoitida korxonalarda ish bilan ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;
- mavsumiy, ma‘lum mavsumda ish bilan bandlikni ta‘minlovchi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash hamda tayyorlash muddati bilan asoslangan. Mavsumiy ishsizlikning hajmi ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning mavsumiy omillari baravar ta‘sir qilishi sifatida namoyan bo‘ladi;
- texnologik o‘zgaruvchan, bu korxonada texnologik o‘zgarishlarning amalga oshirilishi va modernizatsiya qilinishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, fan-texnika yutuqlari natijasida qo‘l mehnati o‘rnini mashina egallashi natijasida yuzaga keladi.

Ishsizlik bugungi kunda dunyo miqyosida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta‘minlanmagan qismi jamiyat rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ishsizlik darajasining ortishi aholi turmush darajasining pasayishiga, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga hamda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining sekinlashishiga olib keladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda mehnat bozoridagi nomutanosibliklar, malaka yetishmasligi va iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlar ishsizlik muammosini yanada murakkablashtiradi.

Shu sababli ishsizlikning sabablari, turlari va uni kamaytirish yo‘llarini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishsizlik – bu mehnatga layoqatli, ishlash istagi va imkoniyatiga ega bo‘lgan, biroq ish topa olmayotgan shaxslar sonining mavjudligi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy holatdir. Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, ishsizlikning bir necha turlari mavjud: friksion





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

(vaqtinchalik), tarkibiy, mavsumiy va tsiklik ishsizlik. Friksion ishsizlik ish qidirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lsa, tarkibiy ishsizlik iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Tsiklik ishsizlik esa iqtisodiy inqiroz davrlarida ishlab chiqarish hajmining kamayishi bilan bog‘liq holda yuz beradi.

Ishsizlikning kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. Avvalo, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining pastligi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga to‘sqinlik qiladi. Aholi sonining tez o‘sishi ham mehnat bozorida ortiqcha ishchi kuchi paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ta‘lim tizimining mehnat bozori talablariga mos emasligi, yoshlarning kasbiy ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi ham ishsizlik darajasini oshiradi. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlarini ham jiddiydir. U aholi daromadlarining kamayishiga, kambag‘allik darajasining ortishiga, jinoyatchilik va ijtimoiy tanglikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Psixologik jihatdan esa ishsizlik insonda tushkunlik, ishonchsizlik va kelajakka bo‘lgan umidsizlikni yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston sharoitida ishsizlikni kamaytirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bandlik dasturlari doirasida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholini kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlar ajratish choralari ko‘rilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, kasb-hunar ta‘limini modernizatsiya qilish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Masofaviy ish shakllari, IT sohasi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bandlikni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Ishsizlikni kamaytirishda davlatning faol bandlik siyosati muhim o‘rin tutadi. Bu borada ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, vaqtinchalik ishsizlarni qayta tayyorlash kurslariga jalb etish va ularni ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, sanoat zonalari tashkil etish va investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish ham samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, ishsizlik murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi. Uni kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Yangi ish o‘rinlari yaratish, kasbiy ta‘limni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, faol bandlik siyosatini amalga oshirish orqali ishsizlik darajasini sezilarli kamaytirish mumkin. Iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini ta‘minlash bevosita bandlik darajasining oshishiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandlik to‘g‘risida”gi Qonuni.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
4. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
6. Maxmudov N., Hakimov N. Makroiqtisodiy taxlil. o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 181 bet.
7. Edward Shapiro. Makroekonomic analysis. Fifth edition. Oxford. Copyright: 2015
8. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I. Yu. Makroiqtisodiy taxlil va prognozlash texnologiyalar”, 2014. – 338 b.

